



IQTISODIYOT

ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal



1/2025



ISCAD

The International Strategic Center
for Agri-Food Development

Agroiqtisodiyot

илмий-амалий агроиқтисодий журнал

МУНДАРИЖА

3. **Ш.АКРАМОВ.** Агросаноат соҳасида халқаро молия институтлари ва хорижий ҳукумат молия ташкилотлари маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш
7. **N.ASKAROV.** Ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari
11. **A.MUXTOPOB.** Табиий ресурсларидан фойдаланишнинг иқлим ўзгаришига мослашган технологиялар самарадорлигини ошириш йўллари
14. **B.MENGLIKULOV.** Ecological audit: content, tasks, principles, types, stages and factors
17. **У.НАЗАРКУЛОВ.** Экосистемных услуг в регионе бывшего Аральского моря
21. **X.XUJAKULOV, A.RO'ZIYEV.** O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida tarmoqlarning tutgan o'rni statistika baholash
26. **H.XVIII MATOV, B.MIRZAEV.** Пахтачилик тармоғини модернизациялаш, сифат ўзгаришлари ва ривожланиш истиқболлари
29. **O'.HAYDAROV.** Investitsiya loyihalarini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish yo'llari
33. **M.ISMAILOVA.** Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (mhxs) asosida moliyaviy hisobotni tuzish yo'nalishlari
37. **J.FARMANOV.** Mintaqada asalarichilikni rivojlantirish manbalari va mexanizmlarini joriy qilishning iqtisodiy tahlili
40. **K.JURAYEV.** Hozirgi global iqtisodiy vaziyatda banklarning roli
44. **M.KARIMOVA.** Meva brendini rivojlantirish uchun marketing strategiyalari: keyslar va amaliyot
48. **M.MAHAMATOVA.** Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning uslubiy jihatlari
51. **A.KHUSANOV.** Modern methodology of modeling and forecasting macroeconomic indicators
53. **G.TURSUNKULOVA.** O'simlikchilikda biologik aktivlarni hisobga olishning metodologik yondashuvlari
57. **A.ABDULLOYEV.** Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda agroklasteral faoliyatining tutgan o'rni
61. **B.MAMARAYIMOVA.** Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari
65. **X.MAMATOV.** Some aspects of organizing operational activity analysis
68. **M.MASHARIPOVA.** Global iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli marketingning imiy asoslari
73. **N.XOLOV.** Tijorat banklari faoliyati barqarorligini reyting tizimi asosida baholash istiqbollari
77. **A.NORQOBILOV.** Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmatining samaradorligini oshirish yo'llari
81. **A.PULATOVA.** Islomiy bank xizmatlarining innovatsion imkoniyatlari va ularni rivojlantirish strategiyalari
84. **D.SABIROVA.** Raqamli iqtisodiyotda innovatsion moliyaviy texnologiyalar
87. **D.SAIDOV.** Tijorat banklari likvidiligi va uni mustahkamlash yo'llari
91. **У.САДУЛЛАЕВ.** Чорвачиликни интенсификациялаштиришда хўжалик тоифасининг таъсири
94. **B.XASHIMOV.** Asosiy vositalar holati va samarali foydalanganlik tahlili
97. **G.TURDIYEVA, X.MAULENBERGENOVA.** Savdo tashkiloti faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlilini takomillashtirish
101. **M.TURSUNOVA.** O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi jarayonida olib borilayotgan islohotlar
105. **J.FARMANOV, A.ESHMAMATOVA.** Iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari
108. **A.ABDULLOEV, H.ASKAROV.** Жаҳонда миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификация қилиш моделлари
114. **A.AVLOKULOV.** Аудиторлик текширувларида баҳоланган қийматлар тўғри қўлланилганлигини аниқлашнинг аҳамияти ва зарурлиги
117. **M.ABIDOV.** Молиявий назоратни ташкил этишнинг хорижий тажрибаси ва ундан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш истиқболлари
120. **У.ДУСКОБИЛОВ.** Ўзбекистонда инфляцияга таъсир этувчи ички омиллар таҳлили
124. **У.КАХХАРОВ.** Рақамли технологияларнинг тижорат банклари фаолиятидаги ўрни ва роли
128. **M.M'UMINOVA.** Ўзбекистонда ёшлар тadbirkorligini rivojlantirish va bandleligini ta'minlashning ayrim jihatlari
131. **M.MUXAMMADJANOV.** Yashil buxgalteriya hisobini tashkil etishning ayrim jihatlari
134. **C.NEMATULLOEV.** Ўзбекистонда кичик бизнесни тижорат банклари орқали молиялаштириш
137. **H.НОРОВА.** Сунъий интеллектнинг тижорат банклари кредитлаш амалиёти самарадорлигига таъсири: хорижий тажриба
141. **Ш.САДИКОВА.** Ўзбекистонда мева-сабзавотчиликни ривожлантириш истиқболлари: муаммо ва ечимлар
144. **И.ТОЙМУХАМЕДОВ.** Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik subyektlarini kreditlash muammolari va istiqbollari
148. **B.AYTIMBETOVA.** Asalarichilik tarmog'ini rivojlantirishda kooperatsiya munosabatlarining ahamiyati
151. **O.FAYZIYEV.** Qishloq xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'lar harakati va rentabelligining kompleks tahlili
154. **M.XAYITBOEV.** Молиявий ҳисоботларни тайёрлашда ҳисоб сиёсатининг ўрни ва аҳамияти
157. **M.YUSUPOVA.** Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит режасини тузиш ва унда биологик активларнинг хусусиятларини акс эттириш масалалари
160. **И.ХАСАНОВ.** Қишлоқ хўжалиги илмий таъминоти тизимини ривожлантиришнинг муқобил сценариялари
165. **Б.АХАТКУЛОВ.** Глобал иқлим ўзгаришлари шароитида картошка уруғчилигини ривожлантиришга оид илмий ва амалий ёндашувлар
170. **M.XALIMOVA.** Aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik risklari va ularni kamaytirish strategiyalarini takomillashtirish

Agroiqtisodiyot

илмий - амалий агроиқтисодий журнал

1 (37), 2025

БОШ МУҲАРРИР:

Назимжон АСКАРОВ

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Алишер ШУКУРОВ
Акмал ҚОСИМОВ
Шохрух АКРАМОВ
Саидасрор ҒУЛОМОВ
Норқул ХУШМАТОВ
Ражаббой ДУСМУРАТОВ
Тулкин ФАРМАНОВ
Фотима НАЗАРОВА
Ирода РУСТАМОВА
Яшнаржон АЛИЕВ
Абдуҳолиқ МУХТОРОВ
Муҳаммаджон ҚОСИМОВ
Исроилжон ХОЛМИРЗАЕВ
Аслиддин АБДУЛЛОЕВ
Акмал НОРОВ
Бахтиёр МЕНГЛИКУЛОВ
Зебо ШОХУЖАЕВА
Зибахан СЕЙТИМБЕТОВА
Улуғбек САДУЛЛАЕВ
Дилшод ЯНГИБОЕВ
Абдурауф ОБЛОҚУЛОВ
Нодир ЖАНИБЕКОВ

МУАССИС:

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик
ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD)

Журнал Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2017 йил 10 мартда
0909-рақам билан рўйхатга олинган.

Журнал 2017 йил июндан чиқа бошлаган.

Бир йилда 4 мартда чоп этилади.

© Agroiqtisodiyot, 2025





QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLAR FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI

Asliddin ABDULLOYEV,

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Аннотация. Мақоллада қишлоқ xo'jaligini rivojlantirishda agroklasterlar faoliyatining tutgan o'rni tahlil qilingan. Unda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish orqali sohadagi intensiv o'sish omillarining ahamiyatini oshirilishi sohaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlash imkoniyatini yaratish ko'rib chiqilgan.

Аннотация. В статье анализируется роль агрокластеров в развитии сельского хозяйства. В исследовании рассматривается важность повышения интенсивных факторов роста отрасли за счет технического и технологического совершенствования производства сельскохозяйственной продукции, а также создание возможности обеспечения социально-экономической стабильности отрасли.

Abstract. The article analyzes the role of agroclusters in the development of agriculture. The study examines the importance of increasing the intensive factors of growth of the industry through technical and technological improvement of agricultural production, as well as creating the possibility of ensuring the socio-economic stability of the industry.

Kirish. Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanib, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qulay tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarning mavjudligi qishloq xo'jaligini rivojlantirish salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish orqali sohadagi intensiv o'sish omillarining ahamiyatini oshirilishi sohaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda agroklasterlar faoliyatining tutgan o'rni masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan T.X.Farmanov, A.M.Jo'rayev, Q.A.Choriyev, N.S.Xushmatov, R.H.Husanov, F.X.Nazarova, O.Jumayev, X.S.Hushvaqtova, R.I. Isroilov, A.S.Altiyev, G.T.Ismoilova, kabi iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida agroklasterlarni tashkil etish va boshqarishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning evolyutsiyasi, agroklasterlarni tashkil etish zaruriyati, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, agroklasterlar faoliyatini innovatsion rivojlanish imkoniyatlari o'rganilgan va bu borada mulohaza yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o'rganish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Jahon qishloq xo'jaligi


mahsulotlari bozorida O'zbekiston o'zining paxtasi va meva-sabzavotlari bilan mashhur hisoblanib, qishloq xo'jaligi mamlakat eksporti hajmining 25,0 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi [1].

Shuningdek, bugungi kunda mamlakat qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer resurslarining 2 103,2 ming gektari ko'p tarmoqli agroklasterlar tomonidan foydalanilayotgan bo'lib, Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari ko'p tarmoqli agroklasterlar tomonidan foydalanilayotgan yer maydonlari hajmi bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlarni egallasa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Xorazm va Navoiy viloyatlari ko'rsatkichi yetakchi hududlarga nisbatan sezilarli darajada kam ekanligi bilan xarakterlanadi (1-rasmga qarang).

Qishloq xo'jaligi faoliyatini tashkil etishda yer resurslaridan samarali foydalanishda har bir mamlakatda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etilishi talab etiladi. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarida talab etiladigan tabiiy resurslari, jumladan, bunda insonlar tomonidan yaratilgan va muntazam saqlab turiladigan biotik hamjamiyat, ya'ni, qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan yer resurslarida yashovchi turli organizmlarning birligi agroekotizim sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yer va suv resurslari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab biologik, fizik va kimyoviy komponentlar inobatga olinadi.

Mazkur yondashuvga asoslangan holda, xalqaro

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi subyektlari, agroklaster, yer resurslari, ekin yerlari, paxta-to'qimachilik, g'allachilik klasterlari, bog' yerlari, dala yerlari, ikkilamchi biologik mahsulotlar.




1-rasm. O'zbekistonda agroklastlar tomonidan foydalanilayotgan qishloq xo'jaligi yer maydoni to'g'risida ma'lumotlar, 2023-y. [6].

tashkilot ekspertlari tomonidan qishloq xo'jaligida er resurslaridan foydalanishning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi (2-rasmga qarang): [3]

- qishloq xo'jaligi faoliyatida bog'larni tashkil etishda foydalanilayotgan yer resurslari – ushbu turkumga turli bog'lar (uzumzorlar, rezavor va mevali bog'lar) va plantatsiyali agroekotizimlar (choy butasi, shakarqamish, kofe va kakao daraxti) mansub hisoblanadi;

- yer resurslaridan dala sharoitida foydalanish yoki dehqonchilik faoliyatini tashkil etish – bunda sug'oriladigan va lalmi er resurslari nazarda tutilib, dukkakli, sabzavot, donli, ozuqaviy, texnik ekinlar va dorivor o'simliklar etishtiriladigan er resurslari maydonlari inobatga olinadi;

- yaylov sifatida foydalaniladigan yer resurslari – chorva mollari boqiladigan yaylovlar, tudra, cho'l va tog'li hududlardagi yaylovlar, o'rmon yaylovlari, madaniylashtirilgan o'tloqlar va



2-rasm. Qishloq xo'jaligi maqsadida yer resurslaridan foydalanish yo'nalishlari

pichanzorlar nazarda tutiladi;

- ikkilamchi biologik mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida yerdan foydalanish – bunda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi agrosanoat korxonalari joylashgan hududlar inobatga olinadi. Bu turdagi korxonalar qatoriga go'sht, sut, meva sharbatlari, tuxum va shu kabi boshqa mahsulotlarni qayta ishlashga ixtisoslashgan agrosanoat korxonalari joylashgan hududlar kiradi.


- qishloq xo'jaligi maqsadida yer resurslaridan aralash holda foydalanish – so'nggi yillarda jahon amaliyotida agroklastlarni rivojlanishiga ustuvorlik qaratilishi natijasida bir vaqtning o'zida qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer resurslaridan bir tashkilot

tomonidan yuqorida keltirilgan yo'nalishlarning ikki yoki undan ortiq turlaridan bir vaqtning o'zida foydalanishi jarayonida vujudga keladigan yerdan foydalanish munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida 97 ta paxta-to'qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g'allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to'qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo'nalishida 34 ta, parrandachilik bo'yicha 10 ta, baliqchilik tarmog'ida 36 ta, asalarichilik yo'nalishida 15 ta fermer xo'jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yilgan. 2021–2022-yillarda mamlakatimiz pillachilik sohasida 600 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 62 ta klaster ishga tushirilishi rejalashtirilgan [4].

Xulosalar va takliflar. Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer resurslaridan foydalanishning birlamchi shaklida qishloq xo'jaligi faoliyati yuritishning dehqon va fermer xo'jaliklari shakli uchun xos bo'lgan xususiyatlar mavjud ekanligi aniqlandi. Shu o'rinda aytish joizki, yer resurslaridan foydalanishning mazkur tashkiliy shakli ma'lum bir qishloq xo'jaligi faoliyatiga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish mumkin bo'lib, bugungi kundagi raqobat sharoitida agroklastlar bilan ma'lum bir turlagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yer resurslaridan foydalanish bo'yicha teng raqobatlasha olmasligi jahon amaliyotidan barchaga ma'lum.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar



3-rasm. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali agroklasterlar egaligidagi yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasi

natijalariga asoslangan holda keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasini taklif etamiz (3-rasmga qarang).

Shu bilan birgalikda taklif etilayotgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasiga muvofiq qishloq xo'jaligi subyektlari foyda solig'ini «Qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash» byudjetdan tashqarish jang'armasiga yo'naltirish orqali ushbu maqsadli fondga jamlangan moliyaviy resurslardan keyinchalik qishloq xo'jaligi yerlarini holatini yaxshilashda maqsadli foydalanish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu fond mablag'larining kamida 80 foizi aynan

qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilashga yo'naltirilishi talab etiladi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasini amaliyotga joriy etilishi orqali mamlakatimiz qishloq xo'jaligi yer resurslarini saqlash, ularning unumdorligini oshirish, yer resurslaridan intensiv va oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini keskin oshirilishiga erishiladi.

Bunda qishloq xo'jaligi faoliyati yuritayotgan dehqon va fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalashtirish yoki ularni agroklasterlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish talab etiladi.

O'zbekiston jahon bo'yicha qishloq xo'jaligini rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlovchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Bugungi kunda mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq

xo'jaligini rivojlantirishga taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan 2-3 marta ko'proq mablag' sarflanayapti. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda bozor mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi ushbu mablag'lardan foydalanish samaradorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, 1 gektar yerdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi Turkiyada 2 ming AQSh dollarga, Misrda 8 ming AQSh dollarga, Isroilda 12 ming AQSh dollarga teng bo'lsa, ushbu ko'rsatkich

mamlakatimizda 300 dollardan oshmayapti. Aslida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida 1 gektar yerdan 10 ming AQSh dollar qiymatiga ega mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega hisoblanadi. [5] Bu esa, o'z navbatida mamlakatimiz qishloq xo'jaligini raqobatbardoshligi va samaradorligi xalqaro ko'rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada ortda qolayotganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nima uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi loyihasi qo'llab-quvvatlashga arziydi? <https://www.gazeta.uz/uz/2019/09/24/agriculture/>.
2. Fayzullayev M.A. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning geografik xususiyatlari. Academic Research in Educational Science. Vol. 1 | Issue 4 | 2020. – pp. 276–279.
3. Состояние мировых земельных и водных ресурсов для производства продовольствия и ведения сельского хозяйства: системы на переделе. Сводный доклад 2021. ФАО. – Рим, 2021. 77 с.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston qishloq xo'jaligi hodimlariga bayram tabrigida so'zlagan nutqidan 12.12.2020-y. <https://president.uz/uz/lists/view/4009>.
5. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-qishloq-khozhaligini-rivozhlantirish-strategi> yasi -iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmush-farovonligini-taminlovchi -yangi-bosqichdir.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
7. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari-2>.

Хурматли журналхонлар!

“AGROIQTISODIYOT” илмий-амалий аграр иқтисодий журнали 2017 йил июнь ойидан бошлаб нашр этила бошланди. Унда иқтисодиёт мавзусидаги мақолалар билан қатнашиш мумкин. Журнал ҳар чоракда бир маротаба чоп этилади. Байрамлар, илмий-амалий анжуманлар ва юбилейлар муносабати билан журналнинг махсус сони ҳам чоп этилиши мумкин.

Журналда чоп этиладиган мақолалар **ўзбек, рус ва инглиз** тилларида қабул қилинади. Уларнинг ҳар бири **8 бетдан** кам бўлмаслиги, **A4 ўлчамдаги** оқ қоғозда, **1,5 интервал** билан **14 шрифтда** Times New Roman шрифтида тайёрланган, **ўзбек, рус, инглиз тилларида** калит сўзлар ва қисқача аннотация илова қилинган, муаллифнинг фамилияси, исми ва шарифи, иш жойи, лавозими, илмий даражаси ва унвони, манзили, телефон рақами ва электрон почтаси кўрсатилган ҳолда тақдим этилиши керак.

Мақолани электрон почта ooqxssrtxm@agro.uz орқали ҳам юборишингиз, маълумот учун эса қуйидаги телефонларга мурожаат этишингиз мумкин: (+0371) 2605230, 2605261.

Ушбу журналда эълон қилинган мақолалар билан **Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро марказининг** веб сайти www.iscad.uz орқали танишишингиз мумкин.

Манзил: 100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Университет кўчаси, 2 уй.
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD).

Таҳририят:

Мусахҳиҳ: **Янгибоев Д.Ф.**

Дизайнер-саҳифаловчи – **Садуллаев У.Н.**

Таҳририят манзили:

100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани
Университет кўчаси, 2 уй.

Тел.: (+0371) 2605230

Факс: (+0371) 2605230

E-mail: ooqxssrtxm@agro.uz

Бичими 60x84 1\8 (4 б.т.). Адади 150.

Чоп этишга 15.03.2025 йилда рухсат этилди.

8/15 сонли буюртма.

“BOOK MEDIA PLUS” хусусий корхонасида тайёрланди.

Манзил: Тошкент ш., Чилонзор тумани,
Чўпон ота кўчаси, 6 уй.

“AGROIQTISODIYOT” журналидан кўчириб босиш фақат таҳририятнинг ёзма розилиги билан амалга оширилади.

Таҳририят фикри муаллифларнинг фикр ва қарашларига мос келмаслиги мумкин.

Мақолаларда **академик ҳалоллик, бошқа манбалардан ўзлаштириш ҳолати ҳамда факт ва рақамларнинг ҳаққонийлиги**га муаллиф шахсан масъул.

Реклама мазмунига реклама берувчи жавобгар.